



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI ABU RAYHON BERUNIY  
NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

“QURILISH VA ARXITEKTURA SOHASIDAGI INNOVATSION  
G'OYALAR, INTEGRATSIYA VA TEJAMKORLIK”

УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ  
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ  
«ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ, ИНТЕГРАЦИЯ  
И ЭКОНОМИКА В ОБЛАСТИ  
СТРОИТЕЛЬСТВА И АРХИТЕКТУРЫ»

IN THE NAME OF  
ABU RAYHAN BERUNI  
URGANCH STATE UNIVERSITY

“INNOVATIVE IDEAS, INTEGRATION,  
AND ECONOMY IN THE FIELD OF  
CONSTRUCTION AND  
ARCHITECTURE”  
SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
REPUBLICAN CONFERENCE

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA  
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA  
1-TO'PLAMI



## **TASHKILIY QO‘MITASI:**

### **RAIS:**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti rektori v.v.b.,  
professor - **S.U. Xodjaniyazov**

### **HAMRAISLAR:**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy ishlar va  
innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **Z.Sh. Ibragimov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti xalqaro hamkorlik  
bo‘yicha prorektori, f-m.f.d., professor - **G‘.U. Urazboyev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Texnika fakulteti  
dekani, f-m.f.n., dotsent - **M.Q. Qurbanov**

Toshkent davlat transport universiteti, Avtomobil yo‘llari muhandisligi  
fakulteti dekani, t.f.d., professor - **A.X. Urokov**

Xorazm viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, Urganch  
tuman bosh arxitektori - **R.B. Matmurotov**

### **ILMIY KOTIB:**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, “Qurilish”  
kafedrası dotsenti, PhD - **A.A. Qutlijev**

## **TASHKILIY QO‘MITA A‘ZOLARI:**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti yoshlar masalalari  
va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **D.I. Ibadullayev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti moliya-iqtisod  
ishlari bo‘yicha prorektori - **A. Atajanov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Qurilish”  
kafedrası mudiri, t.f.n., dots. – **Q.K. Axmedov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Arxitektura”  
kafedrası mudiri **R. Palvanov**

t.f.d., prof., R. Raximov, t.f.d., prof., B.Raxmonov, t.f.n., dots., K.Kuryozov, i.f.n., dots., N. Sattorov, a.f.n., dots., M. Setmamatov, a.f.f.d., dots., S. Atoshev, a.f.f.d., Sh. Abdullayeva, dots., Sh. Xo‘janiyozov, t.f.f.d., S. Sultanova, A. Atamuratov, A. Seyitniyozova, N. Kariyeva, S. Rajabov, S. Yusuf, A. Sobirov, X. Madirimov, X. Radjabov, I. Bekturdiyev, B. Radjapov, A. Xodjayazov, A. Matkarimov, M. Djumanazarova, R. Nafasov, Sh. Navruzov, Y. Tadjiyev, R. Sovutov, A. Samandarov, L. Yusupova, Sh. Masharipov, H. Bekchanov, D. Shalikarova, S. Nurmuhamedov, I. Matnazarov, Q. Soburov, K. Yuldashev, A. Bobojonov, Sh. Nurimetov, H. Masharipova, S. Qurambayev, M. Ashurova, A. Shomurotov.

### **ILMIY-TEXNIK ANJUMAN DASTURIY QO‘MITASI:**

Rais: “ARXITEKTURA, QURILISH, DIZAYN” ilmiy-amaliy jurnalining bosh muharriri, i.f.d., prof. **Nurimbetov Ravshan Ibragimovich**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida 2025 yil 15-16-sentabr kunlari “Qurilish va arxitektura sohasidagi innovatsion g‘oyalar, integratsiya va tejamkorlik” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari kiritilgan.

To‘plamga kiritilgan maqolalar mazmuni, ilmiy salohiyati va keltirilgan dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldirlar.

6. Жданко Т.А. Работы Каракалпакского этнографического отряда ... Сс. 167-171, рис. 16, 17.
7. Карлыбаев М. Полевые записи № за 2009 г. Информатор Полат Бегимов, который передал слова матери – очевидицы событий.
8. Hakimniyazov J., Torenliyazov J., Otegenov H. Jańa dáwirdegi Qaraqalpaqlar tariyxnaması (XVII-XIX ásirdeń ekinshi yarımına shekemgi dáwir), oqıw qollanba Nókis “Qaraqalpaqstan” 2019, -Б. 13-14
9. cyberleninka.ru
10. <https://lex.uz/acts/-25461>

## **MIZDAXKAN ARXEOLOGIK YODGORLIGINING ARXITEKTURAVIY TAHLILI VA UNING TURIZM INFRATUZILMASIDA QO‘LLANISH ISTIQBOLLARI**

Yuldashev Sherzad Baxramovich

Qoraqalpog‘iston davlat universiteti, Arxitektura fakultetini Arxitektura kafedrasida

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasining Xo‘jayli tumani hududida joylashgan Mizdaqxon arxeologik yodgorligi arxitekturaviy jihatdan o‘rganiladi hamda uning zamonaviy turizm infratuzilmasidagi salohiyati tahlil qilinadi. Yodgorlikning tarixiy qatlamlari, me‘moriy shakllanishi, madaniy-ma‘naviy merosi va u orqali barqaror turizmni shakllantirish istiqbollari ochib beriladi. Maqola arxeologik topilmalar, mavjud holat va zamonaviy infratuzilmaviy ehtiyojlar asosida yozilgan.

### **Kalit so‘zlar**

Mizdaqxon, Gaur Qal‘a, arxitektura, arxeologiya, turizm infratuzilmasi, Qoraqalpog‘iston, madaniy meros.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining Xo‘jayli tumani hududida joylashgan Mizdaqxon arxeologik majmuasi — Markaziy Osiyo tarixiy-madaniy merosining eng yirik yodgorliklaridan biri bo‘lib, qadimiy Xorazm davlati urbanizatsiyasi, diniy e‘tiqodlar va arxitektura rivoji haqida muhim ma‘lumotlar beradi. U nafaqat tarixiy

nuqtai nazardan, balki turistik joziba va ilmiy-tadqiqot salohiyati jihatidan ham katta ahamiyatga ega.

Mizdaqxon yodgorligining arxitektura xususiyatlarini tizimli o'rganish va uni Qoraqalpog'iston hududida barqaror turizm infratuzilmasi bilan uyg'unlashtirish imkoniyatlarini aniqlashdir.

Mizdaqxon majmuasi Xo'jayli shahridan 4 km janubi-g'arbda joylashgan bo'lib, Mizdaqxon ikki balandlikdan tashkil topgan. Ulardan biri Gaur qal'a, Mizdaqxonning eski qismi bo'lib, unda qalin paxsa devorlar va arkining qoldiqlari saqlangan.

Gaur Qal'a yodgorligi, Mizdaqxon majmuasining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Tarixiy manbalarda bu hudud qadimgi va o'rta asr Xorazm sivilizatsiyasining markazlaridan biri sifatida tilga olinadi. Gaur Qal'a joylashuvi, arxitektura shakllanishi va topilmalari bilan mintaqaning urbanizatsiya jarayonlari haqida muhim ma'lumot beradi. Gaur Qal'a o'ng qirg'oqda (Amudaryoning sharqiy sohilida) joylashgan bo'lib, qadimiy Urganch bilan bir vaqtning o'zida mavjud bo'lganligi taxmin qilinadi<sup>2</sup>.

Gaur Qala mustahkam mudofa devorlari bilan o'ralgan to'rtburchak shaklidagi shahar bo'lib, ichki hududda bir nechta hovlilari uylar, tandirli oshxonalar, tashnaular va so'falar mavjud bo'lgan. Rejalashtirish tizimi markaziy hovli atrofida xonalarni joylashtirish tamoyiliga asoslangan.



Devor va binolar xom g'isht (paxsa) va pishiq g'ishtlardan qurilgan. Devorlarda ishlatilgan g'ishtlarning o'lchamlari odatda 39–41 x 39–41 sm bo'lib, trapetsiya shaklidagi g'ishtlar gumbazli konstruksiyalarda qo'llanilgan.

Qalinligi 1,6–1,9 m, ba'zi joylarda balandligi 13–16 m bo'lgan devorlar bilan o'ralgan. Embrasure (otish teshiklari), yashirin yo'laklar, minoralar va darvozaxonalar mavjud. Qal'a strategik joylashgan bo'lib, daryo yo'llari va karvon yo'llarini himoya qilgan.

Ichki arxitekturasida G-shaklidagi va P-shaklidagi so‘falar, tandirlar, o‘choqlar, mo‘rilar, tashnaular, omborxona va turli hajmdagi xonalar bilan ichki qurilish tizimi qadimgi turar-joy madaniyatining mukammalligini ko‘rsatadi<sup>3</sup>.


Gaur Qal’a — qadimiy Xorazm shaharsozligining yorqin namunasi bo‘lib, arxitekturaviy, tarixiy va madaniy jihatdan katta ilmiy ahamiyatga ega. Uning murakkab arxitekturaviy shakllanishi, mustahkam devorlari, ichki rejalashtirish tizimi va turar-joy madaniyati bizga qadimgi shahar hayoti va urbanistik rivojlanish darajasi haqida aniq tasavvur beradi. Ushbu yodgorlik nafaqat tarixiy meros, balki turizm va ilmiy izlanishlar uchun katta salohiyatga ega.

Mizdaxqon arxeologik-me'morchilik majmuasi (miloddan avvalgi IV asr - milodiy XV asr) bu shaharning nomi “Mizdaxqon” (“Mardajkon”) deya tilga olinadi. Al-Muqaddasi (985 yil) shunday yozadi: “Mizdaxqon - katta [shahar], uning atrofida 12 ming istehkom va bepoyon viloyat mavjud (Xorazmning bosh shahri Gurganjdan tashqari), qolgan boshqa shaharlarida aholi ko‘p yashaydi va ular mudofaa devorlari bilan o‘rab olingan. Mizdaxqon esa - ular orasida eng kattasi. Maydoni bo‘yicha qariyb Jurjoniya teng bo‘lib uning atrofi ham istehkom devori bilan o‘rab olingan. Qadimiy shahar izlari g‘arb tarafdagi tepalikda Gaur qal’a vayronalari ko‘rinishida saqlanib qolgan (miloddan avvalgi IV-III asrlar). Mizdaxqon majmuasi ham o‘rta asrlarga, ham ancha qadimiyroq islom va zardushtiylikka xos me'moriy yodgorliklar bo‘lmish Jomart qassob tepaligi, Shamun Nabiy, Xalifa Rajab, Mazlumxon Suluv maqbarayu xonaqohlari va boshqalardan iborat(1-rasm).



1-rasm

Mazlumxon suluv (Nazlimxon suluv deb ham ataladi) maqbarasi (XII-XIV asrlar) yarim yer osti me'moriy yodgorligidir(2-rasm). Maqbaraning peshtoqi va gumbazi yerning ustida joylashgan, asosiy qismi esa pastda bo'lib, u yerga gumbazli dahliz orqali o'tish mumkin. Maqbaraning kvadrat shaklidagi markaziy zali sakkiz qirrali gumbaz bilan yopilgan bo'lib, u chuqur uchta va uncha chuqur bo'lmagan bitta tokchaga (nishaga) ega. Maqbara devorlari havorang "bantik"lar bilan bezatilgan<sup>4</sup>.



**2-rasm**

Shamun-Nabi maqbarasi (yoki Shamunabi)- tarixiy Mizdaxqon shahrining sharqiy qismida joylashgan yodgorliklardan biri (3-rasm). Rivoyatlarda Shamun-Nabi sharsining payg'ambar avlodlaridan biri bo'lganligi aytiladi. XIII-XIV asrlarga tegishli ushbu maqbara bugungu kunda Qoraqalpog'iston Respublikasining Xojayli tumanidagi Sarishungil ovulida joylashgan.



**3-rasm**

Yodgorlik O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan 2019-yil 4-oktyabrda moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatiga kiritilgan va davlat muhofazasiga olingan.

Mizdaxqon majmuasining mashhur yodgorliklaridan biri bo'lgan Shamun-Nabi maqbarasi, Jumartqassab tepaligi yaqinida joylashgan bo'lib, tuzilishi jihatidan

tórtburchak shaklga ega. Maqbaraning asosiy fasadi peshtoq bilan mustahkamlangan va sharqqa tomon qaratib qurilgan. Maqbaraning ichki qismi ketma-ket qilib bunyod etilgan yeti gumbaz bilan qoplangan. Shuningdek, maqbarada chóziq shakldagi tórtburchak imorat ham mavjud. Maqbaraning g'arbiy qismi tleuxan bilan tutashgan. Tadqiqotlarga kóra ushbu ikki imoratning qurilishi XIII-XIV asrlarga borib taqaladi.

Halifa Rajab mavzoleyning mahalliy aholida tanilgan nomi Halfai Rajab bo'lib, u nekropol hududining g'arbiy qismida, Mazlumxon Sulu yaqinida joylashgan. Ilgari vizual tahlillar asosida turlicha davrlar bilan bog'langan, ya'ni XIV asrdan X–XI asrgacha bo'lgan davrlarni ko'rsatgan. Tadqiqotlarda inshootning kvadrat shakldagi tuzilishi, qisqa pilonka qismi va fasad dekoratsiyasida yuzaga keluvchi epigrafiya va ornament elementlari, ayniqsa mo'noxrom polivka uslubining davr o'zgarishlari qayd etilgan. Ushbu yodgorlik madaniyat tarixi va diniy e'tiqodning mintaqadagi tarqalishini ko'rsatadi.

Jumart qassob yodgorligi milodiy XII–XIV asrlarga oid bo'lib. Olimlar “Jumart” nomining kelib chiqishini qadimgi eron mifologiyasidagi Gawmard qahramoni bilan bog'lashadi. U zardushtiy kosmogoniyasida muhim o'rin tutgan odam-buqa timsolidir ("gav" — buqa, "mard" — inson), ya'ni birinchi inson, u Airyanem Vaedjo (Xorazm) deb ataluvchi muqaddas o'lkada, Daytiy (Amudaryo) daryosi bo'yida yashagan deb hisoblanadi<sup>6</sup>.

Mazkur qadimiy tepalikning keng devor bilan o'ralgan maydon markazida joylashgani va II–III asrlarga oid ossuariyalar topilgani, bu joyda zardushtiy muqaddas kitoblarda tasvirlangan diniy urf-odatlariga muvofiq marosimlar o'tkazilgan bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Bu holat tepalikning Gawmardga bag'ishlangan muqaddas joy (“muqaddas ziyoratgoh”) sifatida ishlatilgan bo'lish ehtimolini inkor etmaydi.

Stratigrafik qazishmalar natijasida aniqlanishicha, diametri 50–90 metr, balandligi 7 metr bo'lgan qabrtepa asosida diametri taxminan 20 metr, balandligi 4 metr bo'lgan yana qadimroq tepalik mavjud. Ushbu tepalik ilgari tosh bloklardan qurilgan keng to'siq devor o'rtasida joylashgan bo'lgan. Milodiy IX–XIV asrlarda

ham bu tepalik dafn marosimlari uchun xizmat qilgan, ammo bu safar islomiy an'analar asosida.

Jumart qassob — bu nom Mazlumxon Sulu yodgorligi oldida joylashgan tepalikka nisbatan qo'llaniladi. Mahalliy aholi orasida bu tepalik bilan bog'liq ko'plab afsona va og'zaki rivoyatlar mavjud. Rivoyatlarga ko'ra, bu yerda "Hazrati Qassob" – ya'ni go'shtli rizq tarqatgan avliyo dafn etilgan<sup>7</sup>.

Shunday qilib, Mizdaxkan arxeologik majmuasi o'zining murakkab arxitektura shakllanishi, diniy-ma'naviy yodgorliklari hamda qadimiy shaharsozlik tajribasi bilan Markaziy Osiyo me'moriy merosida alohida o'rin tutadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Gaur qal'a va boshqa inshootlar nafaqat mudofaa vazifasini bajargan, balki urbanistik rivojlanishning muhim bosqichlarini ham yoritib beradi. Majmua hududidagi Mozlumxon Sulu, Shamun-Nabi, Xalifa Rajab, Jumart qassob singari yodgorliklar diniy marosimlar va ijtimoiy hayot bilan chambarchas bog'liq bo'lgan.

Mizdaxkanning turizm infratuzilmasi bilan uyg'unlashtirilishi uning mintaqadagi iqtisodiy, madaniy va ilmiy ahamiyatini yanada oshiradi. Bu yodgorlik asosida arxeologik turizmni rivojlantirish, xalqaro ilmiy ekspeditsiyalarni jalb qilish, ziyorat turizmi yo'nalishini kengaytirish imkoniyatlari mavjud. Shu bois, Mizdaxkan nafaqat o'tmish merosi, balki kelajakda barqaror turizmni shakllantirishning muhim markazi sifatida ham katta salohiyatga ega.

#### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Ягодин В.Н., Ходжаев А. *Миздахкан. Археологические памятники Хорезма.* – Ташкент: Фан, 1970.
2. Туребеков А. *Миздахкан қазималари натижалари.* – Нукус: ҚДУ нашриёти, 2007.
3. Ал-Муқаддасий. *Ахсан ат-Тақассим фи маърифат ал-акалим.* – 985 й. (таржима ва таҳлил асосида).
4. Хақимниязов Ж., Сейтбаев И., Исметов Р. *Қорақалпоғистон аймагидаги зиёрат орынлари.* – Нукус: «Билим», 2023.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori. *Moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxati*. – 2019-yil 4-oktyabr.
6. NRM.uz. *Tarixiy, badiiy yoki o‘zga madaniy qimmatligi tufayli garov va ipoteka qo‘llanilishi mumkin bo‘lmagan ob‘ektlar ro‘yxati*. – T.: 2014.
7. Karakalpakstan.travel. *Mizdaxkan majmuasi haqida ma’lumot*. – <https://karakalpakstan.travel/mizdahkan>